

TANLOV!



Bugun 1-sonli musiqa va san'at maktabida “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotining shahar bosqichi tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovni Termiz shahar hokimining o‘rinbosari Mohira Tagayeva ochib berdi va ishtirokchilarga omad tiladi.

O‘zining iqtidori, a‘lo xulqi va tashabbuskorligi bilan tanilgan bir qancha nomzodlar yo‘nalishlar bo‘yicha bellashishdi.

Ma‘lumot o‘rnida shuni aytish kerakki, Prezidentimizning 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotini yanada rivojlantirishga, uning qamrovni kengaytirishga doir bir qator chora-tadbirlar belgilab o‘tildi. Belgilangan yosh chegarasi 8 yoshga oshirilib, 14-30 yosh etib belgilandi. Avvalgidek, hududlar kesimida bir nafar nomzod emas, ikki nafardan nomzod Respublika bosqichida taqdirlanadigan bo‘ldi.

Shuningdek, mukofot laureatlarining oliy ta'lim muassasalariga kirishi bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar kengaytirildi. Endi ular kirish imtihonlarisiz oliy ta'lim muassasalarining nafaqat bakalavriat, balki magistratura bosqichiga ham davlat granti asosida kirishlari mumkinligi mustahkamlab qo'yildi.

Ko'rik tanlov yakunida g'olib bo'lgan xotin-qizlarga shahar hokimligining faxriy yorliqlari hamda viloyat bosqichida ishtirok etish yo'llanmalari taqdim etildi.